

“KONSEPT”NING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI

Batirova Ra’no

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU Lingvistika
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada konsept tushunchasi, bu atamaning tilshunoslikda o‘rganilishi, olimlarning farqli va bir-biriga o‘xhash fikrlari, “konsept”ning lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Konsept, tushuncha, lingvomadaniyatshunoslik, lingvomadaniy xususiyatlar.

ABSTRACT

In this article, the perspective of concept, the study of this term in linguistics, the different and similar opinions of scientists, the linguistic and cultural characteristics of the "concept" are studied.

Keywords: Concept, understanding, linguistic and cultural studies, linguistic and cultural characteristics.

Til va madaniyat har qanday millatning millat ekanligini tasdiqllovchi asosiy vositadir. Bu ikki tushuncha ajralmas va muntazam bir-birini taqozo etadi. Til o‘zining har jabhasida madaniyatni aks ettiradi, madaniyat ham shu o‘rinda tilsiz mukammal namoyon bo‘la olmaydi. Hozirgi kun tilshunoslik ilmida yangi-yangi sohalarning yuzaga kelishi, matn muammosining o‘rganilishi bilan bog‘liq ishlar jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi qator yo‘nalishlar qo‘lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko‘rmoqdalar. Bundan maqsad – nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o‘rin tutishini aniqlash bo‘lsa, ikkinchi tomondan, matnning semantik, lingvomadaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganishdir. Shunday masala sifatida hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e’tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan lingvomadaniy masalalari ko‘pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan

bo‘lsa-da, biroq to‘laqonli o‘z yechimini topgan emas.¹ O‘zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo‘nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Chunonchi, o‘zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot namunalari sifatida A.Nurmonovning “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish”, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab”, N.Sayidrahimovaning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, “Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovaning “Matnning atropotsentrik tadqiqi” mavzusida gimonografiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvomadaniyatshunoslik fanining mohiyati, predmeti va obyekti masalalari o‘rganilgan. Har bir millat o‘zida ma’lum bir milliy an’analarni aks ettiradi. Ya’ni, har bir xalqning, millatning o‘z milliy an’analari, urf-odatlari mavjud. Bu ma’noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiuvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo‘ladi. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida spetsifik yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan yangi soha lingvomadaniyatshunoslikning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Lingvomadaniyatshunoslikning o‘rganish obyekti – bu konseptdir. Bu atamani ilk bor 1928-yilda rus tilshunosi Askoldov o‘z maqolasida qo‘llagan. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagи tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o‘zida aks ettiradigan birlikdir”² deb izoh bergen. Ammo shunga qaramay ushbu atamaga XXasrning 70-yillarida ham chuqur izoh talab qiladigan muammo sifatida qaralardi. Konsept tushunchasining tilshunoslari iste’moliga kirishi 80-yillarda ingliz olimlari Cheyf,³ R.Jakendof, Lakoflarning asarlari bilan bog‘liqdir. “Konsept” tushunchasining lug‘aviy ma’nosini ustida ham ko‘pgina olimlar har xil fikrlarni bildirishadi. Unga ko‘ra, mantiqiy kategoriya, amaliy falsafa tushunchasi, milliy mentalitetning asosiy birligi sifatida qaraydiganlar ham bor. “konsept”- lotincha “conceptus” so‘zidan olingan bo‘lib, “tushuncha” ma’nosini bildiradi. Kognitiv atamalar lug‘atida esa “konsept” atamasiga

¹. Кубрякова Е.С О когнитивной лингвистики и семантике термина когнитивны// Вестник Воронежского государственного университета. –Воронеж, 2001.90-c

² .Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология.-M:Academia. 1997.-C.267-280

³ Ray Jakendoff, 1989: “What is a concept, that a person may grasp it”. Program in Linguistics and Cognitive science

quyidagicha ta’rif beriladi: konsept - bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarning inson bilim hamda malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir. “konsept” atamasi zamonaviy tilshunoslikda bir leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo’llaniladi. Kundalik ilmiy ijodda esa konsept atamasi “tushuncha” bilan sinonim sifatida qo’llaniladi. Tilshunoslikning yangi yo‘nalishi - lingvomadaniyat til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. “Konsept” uning markaziy tushunchasi hisoblanadi. Professor N.Mahmudov lingvokulturologiyada (lingvomadaniyat) konseptning o‘rganilishi xususida shunday yozadi: “Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e’tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunoslikda bu yo‘nalish nihoyatda keng tarqaganini ko‘rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog‘iga yetish mushkul. Hatto so‘nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlangan”. Garchi ushbu atama kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya uchun ham muhim kategoriya hisoblansada, uning ushbu fanlardagi izohi farqlidir. Ushbu termin tilshunoslikda o‘tgan asrning 80-yillariga qadar “tushuncha” so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko‘rish mumkin.

“Konsept” tushunchasi deyarli barcha atoqli tilshunoslar tomonidan keng tadqiq qilinib, ularning barchasi ushbu tushunchani turlicha individual tarzda talqin qilishadi. Y.A.Stepanov va S.A.Askoldovning fikri bir - biriga juda yaqindir, ular konseptni “mantiqiy kategoriya” sifatida talqin etishadi. Ya’ni Askoldovning fikricha “konsept bu madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, xuddi shu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi”. Yana bir rus tilshunosi V.A.Maslova “konsept” ma’nosiga ko‘p qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o‘ylanadigan, balki ular o‘zlarini his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnatatsiyani o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi va konsept tuzilishida o‘zgacha nuqtai nazar borligini ta’kidlaydi. Konsept markazida qadrilik turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrilik prinsipi yotishini ham o‘z fikrlarida bayon etgan. Qolaversa, har bir konsept murakkab mental uyg‘unligi, ma’noviy tuzilishidan tashqari insonni ifodalayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiyl, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga tegishli, shaxsiy individual komponentlarni o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi. Demak, konsept lingvomadaniyatda eng faol qo’llanuvchi birlik sanaladi.

Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Masalan, choy konsepti o‘zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi:

- 1) Chanqoq bosdi ichimlik: chanqaganda ichiladigan, hattoki yozning chillasida ham ichiladigan issiq ko‘k choy;
- 2) Mehmondo‘stlikning ifodasi: uyga mehmon kelganda nondan keyin dasturxonga tortiladigan eng asosiy mahsulot. Kishilar tanishini uyga taklif etish uchun “bir payola choy ichib keting “ iborasini ishlatishadi.
- 3) Bosh og‘rig‘ini qoldiruvchi malham: bosh og‘riganda ko‘pchilik, ayniqsa yoshi kattalar achchiq choy damlatib ichishadi;
- 4) Kelinlar odobining ifodasi: o‘zbek madaniyatida choy uzatishning ham o‘z odobi bor, ya’ni o‘zbek oilalarida, asosan, kelinlar avval yoshi kattalarga tik turgan holatda, chap qo‘llari ko‘ksida, o‘ng qo‘llari bilan choy uzatishadi;
- 5) Shunchaki suhbat chog‘idagi ermak: lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o‘taydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi. Lingvomadaniyatda madaniyat konseptlari alohida tadqiq etiladi. Madaniyatning asosiy konseptlari jamoaviy til ongida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatning asosiy konseptlari deganda mavhum otlar, xususan, vijdon, taqdir, qismat, iroda, gunoh, qonun, erkinlik, ziyolilar, vatan va h.k. tushuniladi. Madaniyat konseptlarini A.Y. Gurevich ikki guruhga: “fazoviy”, falsafiy kategoriyalar, ya’ni madaniyatning universal kategoriyalari (vaqt, makon, sabab, o‘zgarish, harakat) hamda ijtimoiy kategoriyalar, ya’ni madaniyat kategoriyalari (erkinlik, huquq, haqiqat, mehnat, boylik, mulk)ga ajratadi. V.A.Maslova bunga yana bir guruhni – milliy madaniyat kategoriyasini ham ilova qiladi. Konseptlarni tahlil qilish jarayonida har qanday tilda madaniy o‘ziga xos konseptlarning ko‘pligi aniqlangan. Masalan, kartoshka konsepti madaniy o‘ziga xos konseptlardan biri hisoblanadi. Kartoshka ruslar uchun nochor ovqatlanish etalonidir. Buni “sidet na odnoy kartoshke” frazeologizmi misolida ham ko‘rish mumkin; beloruslar uchun odatiy milliy taom, ikkinchi non, muhim ozuqa hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham “konsept” tushunchasi turli talqinga ega. Masalan, Sh.Safarov “moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet - hodisalar haqida tushunchaning tug‘ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna- konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi”ni ta’kidlaydi.¹ O‘.Q.Yusupov konseptni “tashqi yoki ichki dunyodagi biror - bir narsa yoki hodisa haqida ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo‘lgan ijobjiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya’ni baholashlardir”, - deb belgilaydi. Tushuncha va konseptni farqlashda olim quyidagicha fikr bildiradi: “konsept bilan tushunchani

¹.Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor,2006.- B.91

aysbergga o‘xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo‘lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir”.¹

Yuqoridagi fikrlarni o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, konsept tushunchasi har bir shaxs uchun individual va jamiyat uchun umummilliy bo‘lgan, ong, til va ruhiyatning bog‘liqligida kechuvchi jarayondir. Tilshunoslikda yanada chuqr o‘rganishni taqozo etadigan mavzu hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslikda turli olimlarning fikrlarini o‘rganish natijasida yakdil xulosaga kelinmagani ma’lum bo‘ldi va tilshunoslikning yanada chuqr o‘rganilishi talab etiladigan mavzusi ekanligi ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология.-М:Academia. 1997.-C.267-280
2. Кубрякова Е.С О когнитивной лингвистики и семантики термина когнитивны// Вестник Воронежского государственного университета. – Воронеж, 2001.90-с
3. Ray Jakendoff, 1989: “What is a concept, that a person may grasp it”. Program in Linguistics and Cognitive science
4. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor, 2006.- B.91
5. Yusupov O‘.Q-Ma’no,tushuncha, konsept va lingvokulturologiya atamalari xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari.-toshkent,2011.-49-bet
6. Yusupov O‘.Q. Ma’no,tushuncha, konssept va lingvokulturologiya atamalari xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari.-Toshkent, 2011. – 49-bet

¹ Yusupov O’.Q-Ma’no,tushuncha, konssept va lingvokulturologiya atamalari xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari.-toshkent,2011.-49-bet